

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2021 Vol. 2

**www.navoiy-uni.uz
www.goldenscripts.navoiy-uni.uz**

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2021 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.goldenscripts.navoiy-uni.uz

BOSH MUHARRIR

Shuhrat Sirojiddinov

BOSH MUHARRIR

O’RINBOSARI

Karomat Mullaxo’jayeva (o’zbek)

Qosimjon Ma'murov (ingliz)

MAS’UL KOTIB

Ozoda Tojiboyeva

TAHRIR HAY’ATI

Zaynobiddin Abdirashidov

Karl Rayxl (Germaniya)

Seyhan Tanju (Turkiya)

Kamol Abdulla (Ozarbayjon)

Vahit Turk (Turkiya)

Isa Xabibeyli (Ozarbayjon)

Benedek Peri (Vengriya)

Teymur Kerimli (Ozarbayjon)

Eunkyung Oh (Koreya)

Mark Toutant (AQSh)

Boqijon To’xliyev

Qosimjon Sodiqov

Nurbboy Jabborov

G’aybulla Boboyorov

Vali Savash (Turkiya)

Kimura Satoru (Yaponiya)

Hamidulla Dadaboyev

Aftondil Erkinov

Rashid Zohidov

Baxtiyor Abdushukurov

Almaz Ulvi (Ozarbayjon)

Dilnavoz Yusupova

Qo’ldosh Pardayev

Elchin Ibrohimov (Ozarbayjon)

Nodirbek Jo’raqo’ziyev

MUNDARIJA

ADABIYOTSHUNOSLIK

Ilyos Ismoilov

Tafsirlarda Iskandar mavzusiga oid talqinlar 4

Jahongir Turdiyev

Turkiy me’rojnomalardagi motivlar xususida 20

MATNSHUNOSLIK

Abdimurod Arslonov

“Temurnoma”larning matniy xususiyatlari 34

G’iyosiddin Shodmonov

O’zbek matnshunosligining ilk bosqichi va Navoiy “Xamsa”si nashrlarining takomili 50

Aftondil Erkinov

Oysara Madaliyeva

“Terma devon” yoki Navoiy “Navodir un-nihoya”sining so’nggi redaksiyasi? 64

Ilova. Matn

68

EDITOR IN CHIEF	
Shuhrat Sirojiddinov	
DEPUTY EDITOR IN CHIEF	
Karomat Mullakhojaeva (Uzbek)	
Kasimjon Mamurov (English)	
EXECUTIVE SECRETARY	
Ozoda Tojiboeva	
EDITORIAL BOARD	
Zaynabiddin Abdirashidov	
Karl Rechl (Germany)	
Isa Habibeyli (Azerbaijan)	
Benedek Peri (Hungary)	
Teymur Kerimli (Azerbaijan)	
Eunkyung Oh (Korea)	
Mark Toutant (USA)	
Bakijan Tukhliev	
Kasimjan Sadikov	
Nurboy Jabborov	
Gaybullah Babayarov	
Vali Savash (Turkey)	
Onal Kaya (Turkey)	
Kimura Satoru (Japan)	
Vahit Turk (Turkey)	
Seyhan Tanju (Turkey)	
Aftandil Erkinov	
Rashid Zahidov	
Atabek Juraboev	
Bakhtiyar Abdushukurov	
Almaz Ulvi (Azerbaijan)	
Yusupova Dilnavoz	
Kuldosh Pardaev	
Elchin Ibrahimov (Azerbaijan)	
Nodirbek Jurakuziev	

CONTENTS	
LITERATURE	
Ilyos Ismoilov	
Interpretations on the subject of Alexander in Tafsir	4
Jahongir Turdiev	
Motives in Turkic Mi'rajnama	20
TEXTOLOGY	
Abdimurod Arslonov	
Text features of "Temurnoma"	34
Giyosiddin Shodmonov	
The first stage of uzbek textology and the development of publications of Navoiy's Khamsa	50
Aftondil Erkinov	
Oysara Madalieva	
The latest edition of Terma Devon or Navoi's Navodir un-nihoya?	64
Appendix. Text	68

ADABIYOTSHUNOSLIK LITERATURE

Tafsirlarda Iskandar mavzusiga oid talqinlar

Ilyos Ismoilov¹

Abstrakt

Islom ta'limoti Iskandar mavzusining keyingi taraqqiyoti, Sharq-dagi rivojiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Bu ulkan ta'sir uch muhim asos – Qur'on, hadis va tafsirlarga tayanadi. Iskandar mavzusida asar yozish an'anasi ularning ta'sirida yangi sujet liniyalari, obrazlar, epizod va motivlar bilan boyidi. Mazmunan takomillashib, original talqinlarga ega bo'ldi. Xususan, Qur'onning "Kahf" surasi mavzu va an'ananing Sharqdagi evolyutsiyasida burilish yasadi. Mazkur suraga yozilgan sharhlar esa o'ziga xos xarakteri bilan ajralib turadi. Ularda Zulqarnayn qissasiga oid tafsilotlar Iskandar qissasiga daxldor qarashlar, talqinlar bilan qo'shib yuborildi. Ya'ni tafsirlarda Iskandar mavzusi retsepsiyaga uchradi, ikki an'ana qorishtirib yuborildi.

Ushbu maqolada tafsirlarga xos ayni jihat tadqiq etilib, Sharqning mashhur mufassirlari asarlari asosida xulosalar chiqarilgan. Iskandar va Zulqarnayn an'analari yanglish tarzda qo'shib yuborilgani, bunday qarash hech qanday ishonchli asoslarga ega emasligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: *Iskandar mavzusi, Zulqarnayn qissasi, transformatsiya, tafsir, talqin, retsepsiya, Sharq.*

Kirish

Iskandar mavzusining G'arbdagi asoslaridan Sharqqa transformatsiyasi jarayonini konkret ko'rsatib berish imkonsiz, chunki bu uchun dalillar, manbalar va imkoniyat juda cheklangan, shu bois bu jarayonga oid gaplar ko'proq faraz xarakteriga ega. Aksariyat tadqiqotchilar fikricha, G'arbdagi Psevdo-Kallisfen an'anasi Iskandar mavzusining Sharqdagi evolyutsiyasiga jiddiy ta'sir

¹ Ismoilov Ilyos Abduqayumovich – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: ismoilov@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-8077-7914

Iqtibos uchun: Ismoilov, I.A. 2021. "Tafsirlarda Iskandar mavzusiga oid talqinlar". *Oltin bitiglar* 2: 4–19.

ko'rsatgan. Ushbu ta'sir ikki xil yo'nalishda bo'lgan bo'lishi mumkin:

1. Psevdo-Kallisfenning o'rta fors tilidagi pahlaviy versiyasi (tax. V asr) mavjud bo'lgan va shu versiya asosida boshqa arabcha tarjimalar paydo bo'lgan (T.No'ldeke farazi).

2. Psevdo-Kallisfenning suryoniy versiyasi bir nechta arabcha tarjimalar paydo bo'lishiga asos bo'lgan (V.Budge farazi).

Ikkinchi qarash haqiqatga yaqinroq, har qanday holatda ham, Psevdo-Kallisfen an'anasining Iskandar mavzusining Sharqdagi taqdiriga ta'siri mavjud dalillar bilan isbotlangan, bu borada bahsga hojat yo'q. Bu jarayonda tarjimonlar muhim rol o'ynagani aniq, boshqa tomondan, Sharqlik mualliflarning o'zlari to'g'ridan to'g'ri suryoniy manbalar, G'arb manbalariga murojaat etgani yoki kelib chiqishi yahudiy bo'lgan, isroiliyotdan xabardor musulmonlardan og'zaki eshitganini taxmin qilish mumkin. Tarixda Ka'b al-Axbor kabi islomni qabul qilgan yahudiylar yoki shunga o'xshash toifalar o'tgan va aynan ular isroiliyotning musulmonlar orasida yoyilishiga sababchilardan bo'lgan. Masalan, Ka'b al-Axbor Bibliya qissalari va shunga o'xshash afsonalarni ko'p so'zlab bergan. Hatto, bu ishlari uchun ayrim shayxlar uni islomni yahudiylashtirishda ham ayblashgan [encyclopedia.com]. Xullas, muayyan shaxslar Aleksandr haqidagi afsonalarning arablar orasida tarqalishi va islom ta'limotiga oid qissalarga qo'shilib ketishiga xizmat qilganini ham nazarda tutish lozim.

Boshqa tomondan, Iskandar mavzusining Sharqdagi evolyutsiyasida "Kahf" surasiga yozilgan tafsirlar muhim ahamiyat kasb etdi. Aynan tafsirlarda ulamolar ijtihodga intilib, qissalarda mavjud bo'lmagan yangidan yangi ma'lumot va voqealarni o'z tafsirlariga kiritishgan. Natijada qissalarning haqiqati, asl voqealari bir yoqda qolib, turli bahslar-u chalg'ituvchi ma'lumotlar, asossiz afsonalar oldingi planga chiqib ketgan. Jumladan, aynan ulamolar Zulqarnayn va Iskandar (Aleksandr) bir shaxs degan yangilish tasavvurning keng yoyilishiga "hissa" qo'shishgan.

Tafsir va talqin

Muqotil bin Sulaymon

Islom tarixida ilk to'liq tafsirlardan birini yozgan, hij. 80–150-yillar orasida yashagan Muqotil bin Sulaymon "Tafsiri Kabir"da "Kahf" surasini sharhlar ekan, uni "qaysar Iskandar" deb izohlaydi va "Zulqarnayn" – "ikki shoxli" nomini quyoshning ikki shoxiga, ya'ni kun chiqish va botishga qadami yetgani uchun olgan tarzida izohlaydi [Süleyman 2015, 624].

Mufasssir-u muarrixlar otasi nomini olgan Muhammad bin

Jarir Tabariy (839-923) o'z tafsirida Zulqarnayn va Iskandar masalasida xolis pozitsiyada turadi, masalaga oid turli qarashlarni xolis bayon qiladi. Jumladan, Iskandar va Zulqarnaynni bir shaxs degan qarash ham mavjudligini qayd etadi. Tabariy Zulqarnayn qissasini qayta bayon qilar ekan, Zulqarnayn Mashriq va Mag'ribga safar qilgach, "So'ngra u yana sababga ergashdi" [Shayx Muhammad 2008, 516] deyilgan 92-oyatni "Pas basox t va roh bargrft so'yi Rum" [Tabariy 1356, 936] tarzida bayon qiladi. Tafsirchilar mazkur oyatda Zulqarnayn shimol tomon ketganini taxmin qilishadi, holbuki, oyatda Rum yoki shimol so'zlari uchramaydi. Shuningdek, Tabariy oyatlarda nomi tilga olingan Zulqarnayn Iskandariyani qurgan va dunyoning katta qismini egallagan Iskandar ekaniga dalolat qiluvchi hadisni bayon qiladi [Taberî 1996, 378].

Tabariy keltirgan rivoyatda avvalgi fasllarda ko'rganimiz Psevdo-Kallisfen voqealari va Talmudda unga nisbat berilgan turli afsonalar qorishiq holda turibdi. Jumladan, rumlik yigit va Iskandariya haqidagi qaydlar ko'proq Psevdo-Kallisfenga, ko'kka ko'tarilish haqidagi qaydlar esa yahudiy afsonalariga tegishli. Bu shundan dalolat beradiki, milodiy IX asr boshlari, ehtimol, VIII asrdayoq Iskandar mavzusining G'arbdagi asoslari faol tarzda Sharqda retsepsiya bo'lib ulgurgan, ular asosan to'qima afsonalar bo'lgan. Afsuski, ilk va ishonchli tafsirlardan oq Aleksandrning temir darvoza qurgani va obi hayot qidirgani haqidagi uydirma afsonalarning mufassirlarga ta'siri seziladi. Ular Zulqarnayn va Iskandar bitta shaxs degan qarashni uzil-kesil aytishmagan, bu masalada xolislikka intilishgan bo'lsa-da, shu mazmundagi ko'plab rivoyatlarni keltirishlari bu qarash ko'proq salmoqqa ega bo'lishiga sabab bo'lgan.

Abu Mansur Moturidiy

Abu Mansur Moturidiy (870-944) esa o'z tafsirida Zulqarnayn haqida ixtilof ko'pligini aytadi, Iskandar va Zulqarnaynning shaxsi borasida xolislikka intiladi. Lekin u ham Tabariyning Uqba ibn Amirdan keltirgan hadisini takrorlaydi, lekin "agar bu rivoyat sahih bo'lsa" tarzida shubha bildiradi [Mâtürîdî 2018, 131-132]. Moturidiy shu o'rinda Iskandar mavzusining Sharqdagi rivojida muhim ahamiyat kasb etuvchi yana bir masalani muhokama qilgan. U Zulqarnaynning hukmdorlar yoki payg'ambarlardan bo'lgani borasida to'xtaladi va bizni shu masala tarixiga oid muhim jihatlar bilan tanishtiradi. Qayd etilishicha, Hasan Basriy (641 – 728) Zulqarnaynni payg'ambar deb bilgan, bunda u "Ey Zulqarnayn, yo ularni azoblaysan yoki go'zallik-la tutarsan, – dedik" oyatini dalil qilib ol-

gan. Hasan Basriy shunday degan: “bu ifoda bahs etilgan ishda hakamlilik vazifasini Zulqarnaynga berish ma’nosini anglatadi. Hukm esa faqat payg’ambar bo’lgan kishiga beriladi”. Biroq Moturidiy Zulqarnaynning hukmdorlardan bo’lish ehtimoli ko’proq degan qarashga qo’shiladi va o’z fikrini isbotlashga harakat qiladi [Mâtürîdî 2018, 132].

Ushbu masala keyingi davr tafsir-u tarixlarida ham shu zaylda davom etgan. Moturidiy tafsiridagi muhim jihat shuki, unda VII asrdayoq Zulqarnaynning hukmdor yoki payg’ambar ekani masalasi dolzarblik kasb etgani, bu borada turli bahslar yuzaga kelgani ko’rsatib berilgan. Ayni masala Iskandar mavzusi tarixida alohida iz qoldirgani bilan ahamiyatli. Sahobalar yoki mufasssirlar tomonidan Zulqarnaynni payg’ambar sifatida tavsiflash keyinchalik Zulqarnayn va Aleksandr bitta shaxs degan tasavvurlar bilan qo’shib ketgan, oqibatda Iskandarning payg’ambar sifatidagi talqinlari yuzaga kelgan va Iskandar haqida yozilgan asarlarning ayrimlarida syujetning katta qismini mana shunday tasavvurlar egallagan. Buning yorqin dalili Nizomiyning “Iqbolnoma”sidir. Mazkur talqin Sharqda keng yoyilib, Navoiy ijodiga ham kirib bordi. Biroq adibning bu boradagi tasvirlari nominal xarakterga ega bo’lib, Iskandarning payg’ambar sifatidagi talqinlariga qo’shilgan emas.

Abulqosim Zamaxshariy

Mashhur mufasssirlardan Abulqosim Zamaxshariy (1075-1144)ning “Kashshof” tafsirida ham ikki nasroniy hikoyaning kuchli ta’siri seziladi. Bu holat Muso va solih qul, Zulqarnayn qisalari hamda Ya’juj-Ma’juj voqeasi sharhida ko’rinadi. Zamaxshariy 61-oyatni sharhlar ekan “tuzlangan baliq” va “hayot bulog’i” motivlari bilan bog’liq afsona-yu rivoyatlarni keltiradi, ammo ularga xolis munosabatda bo’ladi, shunday rivoyatlar borligini eslatib o’tadi. Qayd etilgan rivoyatlarda Muso, Yusha va Hizir nomlari uchraydi, ammo Ilyos nomi zikr etilmaydi [Zemahşerî 2018, 90-92]. “Kashshof”da Zulqarnayn haqida shunday yoziladi: “Zulqarnayn — dunyoni zabt etgan [Makedoniyalik buyuk] Iskandar.

Aytishlaricha, dunyoda ikki mo’min va ikki kofir hukmronlik qilgan. Mo’minlar Zulqarnayn va Sulaymon alayhissalom; kofirlar Namrud va Buhtunnasrdir. Buhtunnasr Namruddan keyin yashagan. Zulqarnaynning kimligi haqida ixtilof bor, shunday deyilgan: Zulqarnayn Alloh tarafidan yer yuziga hukmron qilingan, Alloh unga ilm va hikmat bergani, ulug’vorlik baxsh etgani, yorug’lik va zulmatni amriga bo’ysundirgani, yurganida nur oldida yurib yo’lini yoritgan,

zulmat esa ortidan ergashgan solih bandadir. Yana payg'ambar va farishtalardan bo'lganligi aytiladi" [Zemahşerî 2018, 116]. Ushbu parchadagi Iskandar, yorug'lik va zulmat haqidagi tasavvurlar nasroniy afsonalardagi Aleksandr bilan, solih banda, payg'ambar va farishta haqidagi tasavvurlar esa "Kahf" surasidagi Zulqarnayn bilan aloqador. Bu ikki qutb, avvalo, bir-birini rad etadi, ayni paytda ikki xil tasavvurlarning qorishib ketish an'anasini yaqqol namoyon qiladi.

Zamaxshariyning "shox" motivi, ya'ni Zulqarnaynning boshida *ikki shox* borligi haqidagi rivoyatlarida ham nasroniylar to'qib chiqargan afsonalarning ta'siri bilinib turibdi. Ajablanarlisi, bunday rivoyatlarning Ali r.a.g.a nisbat berilishidir [Zemahşerî 2018, 116].

Vahb bin Munabbih

Zamaxshariy o'z tafsirida mashhur yaman tarixchisi Vahb bin Munabbih (655-738)ning asarlaridan iqtiboslar keltiradi. Jumladan, Vahb bin Munabbihning Zulqarnayn "Boshi (dubulg'asi)-ning ikki tarafi misdan edi" degani keltiriladi. Zamaxshariy ushbu fikr ortidan "boshidagi tojining ikki shoxi bo'lgani va boshida ikki kokilga o'xshash narsa bo'lgani ham naql etiladi" deb qo'shib qo'yadi [Zemahşerî 2018, 118]. Zamaxshariyning ushbu qaydlari bir necha muhim xulosalarga imkon beradi, *birinchidan*, mufasssirlar bu kabi rivoyatlarni keltirishda tarixiy asarlarga suyanishgan. *Ikkinchidan*, hijriy I asrdayoq "Zulqarnayn" so'zini "ikki shoxli", ya'ni "dubulg'asi yoki tojida ikki shox bo'lgan" tarzida izohlash an'anasi mavjud bo'lgan; bu esa ikki to'qima nasroniy afsonalar hijriy I asrdayoq arab tarixnavisligi, islomiy ilmlarga ta'sir ko'rsata boshlaganini bildiradi. *Uchinchidan*, Vahb bin Munabbih isroiliyotni yaxshi bilgan, unga aloqador hikoya-yu rivoyatlarni yig'ib yuruvchi shaxs bo'lgan. Bunday tarixchining nasroniy afsonalaridan xabardor bo'lgani, hatto ularni arabchaga tarjima qilgani yoki mazmunini og'zaki aytib yurgan bo'lishi ehtimoldan yiroq emas.

Zamaxshariy tafsirida isroiliyot bilan bog'liq yana bir muhim nuqta Ka'b al-Axbor (vafoti tax. 652/655)dan keltirilgan iqtibosdir. Zamaxshariy shunday yozadi: "Ka'b al-Ahbor aytadiki, ularning yerlarida imorat qurilmasdi, lekin tunnellar va dahlizlar bor edi. Quyosh chiqqach, dahlizlarga kirardilar, kun o'tib ketgach, yana tirikchilik ishlari uchun tashqariga chiqardilar" [Zemahşerî 2018, 122]. Ka'b al-Axborning ushbu so'zlari Aleksandr haqidagi nasroniy afsonalardan olingan iqtibos bo'lib, xristian afsonalarda aynan shunday o'rinlar bor. Demak, hijriy I asr boshlaridayoq mana shunday yo'llar bilan ikki nasroniy afsonadagi motivlar, detallar

va voqealar islom muhiti, tasavvuri va tafakkuriga kirib ulgurgan, keyinchalik tafsirlarda bunday to'qimalar yanada urchib borgan.

Zamaxshariy Ya'juj va Ma'juj masalasida ham bir qancha talqinlarni bayon qilgan. Xususan, u "Ya'juj va Ma'juj ikki xorijiy nom, buning dalili shuki, bu ismlar musulmoncha emas... Bu ikkisi [Nuh o'g'illaridan] Yofas avlodlaridan kelib chiqadilar. Ya'juj turklardan, Ma'juj esa daylam irqidan ekani aytiladi" [Zemahşerî 2018, 124]. Ma'jujlarni aynan Yofas avlodlari sifatida qarash isroiliyotdagi Magogni Yafet o'g'li sifatida talqin qilishning hosilasi bo'lib, Ya'jujni turklar bilan, Ma'jujni daylamiylar bilan bog'lash ham nasroniy afsonalarida mavjud bo'lgan Gog va Magogni xunlar yoki skiflar deb tasavvur qilishning oqibatida yuzaga kelgan. Zamaxshariy qaydlariga daylamiylar haqidagi tasavvurlarning kirib qolishi ham nasroniy afsonalarda urg'u berilgan Kavkaz atrofida yashovchi xalqlar, ularga qarshi temir darvozalar qurilishi haqidagi uydirmalar mahsuli. Biroq Zamaxshariy Ya'juj-Ma'jujlarga qarshi qurilgan devor joylashgan joy sifatida butunlay boshqa hududni ko'rsatadi. Uning qayd etishicha, oyatda aytilgan "ikki tog' orasi" Mashriq tomonda, turklar yerining oxirida bo'lib, sad qurishni so'raganlar ham turklar bo'lgan. Sadning uzunligi esa yuz farsah bo'lgan [Zemahşerî 2018, 124-128]. Bu yerda yuqorida Ya'jujlar haqida bildirilgan fikrlarga nomuvofiqlik bor. Umuman, Zamaxshariyning Ya'juj-Ma'jujlar haqidagi qarashlariga ham isroiliyot kuchli ta'sir ko'rsatgan deyish mumkin.

Abulfaraj ibn al-Javziy

Abulfaraj ibn al-Javziy (1116-1201)ning "Zad ul-masir fi ilm ut-tafsir" nomli tafsiri masalaga oid qarashlarni sistemalashtirib, manshasini ham taqdim etishi bilan ajralib turadi. Javziy Muso qisqasi tafsirida ikki dengiz qo'shilgan joyning suvi obi hayot bo'lgani, yemak uchun olingan baliq ana shu suv ta'sirida tirilgani, hatto, Muso baliqning ortidan dengizga yo'l olgani haqida yozadi. Xizrning kimligi, uning payg'ambarligi masalasi to'g'risida ham batafsil to'xtaladi [Cevzi 2009, 61-63]. Javziy Zulqarnayn kim ekanligi borasidagi ixtiloflarni to'rt guruhga birlashtirib quyidagicha taqdim etadi: "*Birinchisi*: Abdullohdir, buni Hazrat Ali r.a. aytgan. Ibn Abbosdan uning Abdulloh ibn Dahhak ekani rivoyat qilingan. *Ikkinchisi*: Iskandardir, buni Vahb bin Munabbih aytgan. *Uchinchisi*: Ayyashdir, buni Muhammad bin Ali bin Husayn aytgan. *To'rtinchisi*: Sa'b bin Jabir bin Kalamusdir, buni Ibn Abu Haysama zikr qilgan" [Cevzi 2009, 76].

Iqtibosdagi bir o'rin e'tiborga molik, ya'ni Javziy Zulqarnaynning kim ekani haqidagi asosiy qarashlarni keltirish bilan bir-

ga ularning boshida turgan manbani ham aytib ketgan. Javziyning qayd etishicha, “Zulqarnayn – bu Iskandar” degan qarashning muallifi tarixchi Vahb bin Munabbih (655-738)dir. Ko‘rinadiki, Aleksandr haqidagi nasroniy afsonalarning Sharqda ommalashi-shi, arab manbalarida keng yoyilishi, xususan, Zulqarnaynni Aleksandr bilan bog‘lash an‘anasi ko‘p jihatdan Vahb bin Munabbih va Ka‘b al-Axborga borib taqalmoqda. Bu bir qarashda tabiiy, chunki har ikkisi yahudiylik bilan aloqador shaxslar. Yuqoridagi ikkinchi qarashning muallifi sifatida Javziy tomonidan Vahb bin Munabbihning ko‘rsatilishi ushbu farazimizni qo‘llab-quvvatlaydi.

Ta‘kidlash kerakki, Javziy keltirgan ayrim iqtiboslarga qaraganda Vahb bin Munabbih ham Iskandar (Aleksandr) haqida mukammal tasavvur va bilimga ega bo‘lmagan. Masalan, Zulqarnaynni Iskandar deb bilgan Vahb bin Munabbih uni Iso a.s. va Muhammad a.s. yashagan davrlar oralig‘ida o‘tgan deb hisoblagan [Cevzi 2009, 77].

Tarixdan ma‘lumki, Iskandar, ya‘ni Aleksandr Iso tug‘ilishidan IV asr oldin o‘tgan. Bu shuni anglatadiki, Zulqarnaynni Iskandar deb chalg‘itgan tarixchilarning o‘zlari ham xabar berayotgan ma‘lumotlarining asl haqiqatidan to‘liq voqif bo‘lmagan. Bu esa ixtiloflar va turli xil chalkash talqinlarning ko‘payishiga xizmat qilavergan. Javziyning “Zulqarnayn” so‘zi anglatgan o‘nta ma‘no haqidagi qaydlarida shox motivi ham uchraydi. Shuningdek, uning sad Armaniston va Ozarbayjon tog‘larida joylashgani, Ya‘juj-Majujlar to‘g‘risidagi qaydlarida xristian afsonalarining ta‘siri seziladi [Cevzi 2009, 82-84].

Imom Faxriddin Roziy

Imom Faxriddin Roziy (1149-1210) o‘zining “Mafotih ul-g‘ayb” nomli tafsirida “Kahf” surasini batafsil sharhlagan. Roziy Muso qissasi tafsirida baliqning tirilishi masalasiga to‘xtalib, baliqning tirilishi – Xizrning manziliga ishora ma‘nosini anglatadi, oyatlarda faqat shu ma‘no bor degan fikrni bildiradi. Shu bilan birga, baliqning qanday qilib dengizga sakragani va suzib ketgani xususida har xil rivoyatlar borligi, ularda tuzli baliqning obi hayot ta‘sirida jonlangani aytilishi ham eslab o‘tiladi [Er-Râzî 1993, 216-217]. Roziy tarixiy manbalarga tayanib, Qur‘onda zikr etilgan Zulqarnayn yunonistonlik Filippning o‘g‘li qirol Iskandardir degan qarashni bayon qiladi. Uning dalillashicha, tarixda Iskandardan boshqa biror qirol Zulqarnayn kabi butun dunyoni – G‘arb, Sharq va Shimolni egallagan emas; qolaversa, tarixlarda Iskandarning Shimolda sad qurgani, turklar qavmi bo‘lgan Ya‘juj-Majujlarning esa Shimolning eng uzoq nuqtasida yashashi yozilgan. So‘ng Roziy Aleksandr Makedonskiy

faoliyati haqida qisqacha ma'lumot beradi [Er-Râzî 1993, 245 – 246].

Roziy keltirgan uch argumentning har biri yanglish, xususan, dunyoni egallagan hukmdorlar tarixda ko'p bo'lgan, faqat ular haqidagi xabarlarining aksari saqlanib qolmagan. Qolaversa, Aleksandr Yevropaning bir qismini, asosan, Osiyoning janubi-sharqini bo'ysundirgan, boshqacha qilib aytganda, Makedoniyadan Hindistonga to'g'ri yo'nalgan yo'nalish va hududlarni zabt etgan. Aleksandrning Shimolga yurish qilgani haqidagi gaplar esa tarixga zid. Tabiiyki, Aleksandrning shimolda sad qurgani, Ya'jujlarning shimolda yashashi haqidagi gaplar ham asossiz. Roziy qaydlaridagi "shimol" motivi ushbu fikrlar Aleksandr haqidagi nasroniy afsonalardan rivojlanib kelganini aniq ko'rsatib turibdi. Chunki geografik jihatdan olib qaralsa, Aleksandr Shimolga yurish qilmagan. Agar "Aleksandr haqidagi xristian afsonasi"ga tayanib Aleksandr Kavkaz tog'larida temir darvoza qurdirgani, bu to'siq skiflarga qarshi qurilgani haqidagi cho'pchaklar nazarda tutilayotgan bo'lsa (ayni shu afsonalarda Aleksandrning shimolga borgani haqida yoziladi, shimol motivi muhim o'rin tutadi), Kavkaz tog'lari yoki Kaspiy darvozasi Makedoniya yoki Gretsiyaga nisbatan shimolda emas, aksincha, Sharqda joylashgan, demak, bunday qarashning manbasi Kavkaz tog'lariga nisbatan janubda joylashgan xalqlardir.

"Aleksandr haqidagi xristian afsonasi"ning tili suryoniy ekani inobatga olinsa, hammasi tushunarli bo'ladi. Bunday mantiqsiz ma'lumotlarning tili arab bo'lgan mufassirlar orasida keng yoyilishi va ularning bundan ajablanmasligi ham tabiiy, chunki Kavkaz tog'lari yoki Armaniston Iroq, Saudiya va Yamanga nisbatan ham shimolda joylashgan. Bunday qarashlarning Aleksandrning asl tarixiga hech qanday aloqasi yo'q. Roziyning Zulqarnayn shaxsi haqidagi qaydlari bu masalada u Aleksandr haqidagi to'qima afsonalar ta'sirida fikrlaganini tasdiqlaydi.

Muhyiddin ibn Arabiy

Muhyiddin ibn Arabiy (1166-1240)ning "Tafsiri Kabir" nomli tafsiri irfoniy yo'nalishda bitilgani bilan ajralib turadi. Ibn Arabiy "Kahf" surasini ta'vil qilar ekan, Musoni "Qalb Musosi", xizmatkor yigitni "nafis badan", ikki dengiz qo'shilgan joyni esa "ikki olam, ya'ni ruh olami va jism olami uchrashadigan joy" deb talqin etadi [Arabi 2008, 708]. Zulqarnayn qissasi haqida esa shunday yozadi: "Zulqarnayn (ikki shoxli) qissasi mashhurdir. U Rasululloh (s.a.v.) zamonlariga yaqin bir davrda yashagan Rum sarkardasi edi. Ushbu qissaning borliqqa muvofiqligiga kelsak, undan maqsad bor-

liqning ikki shoxi, ya'ni Sharq-u G'arbga hukmronlik qiluvchi qalbdir" [Arabi 2008, 715]. Ibn Arabiy shu tariqa qissa tafsirida Zulqarnaynni "qalb" sifatida, quyoshning botish manzilini "ruh quyoshining botish joyi", kun chiqish makonini esa "ruh quyoshining tug'ish joyi" deb ta'vil etadi [Arabi 2008, 716-717]. Zulqarnaynning G'arb-u Sharqdan so'ng, uchinchi tomonga ketishi va u yerda ikki tog' orasiga duch kelishini "Allohda sayr yo'lini izladi, ikki kavn orasiga yetdi" tarzida, Ya'jujni "vahimali xohish va orzular", Ma'jujni esa "vasvasalar va xayoliy instinktlar", sadni esa "amaliy hikmat va shar'iy qonun" deb ta'vil qiladi [Arabi 2008, 717].

Abdulloh Kurtubiy

Abdulloh Kurtubiy (vaf. 1273)ning "Al-jome' li-ahkam al-Qur'on" nomli tafsiri fihiy yo'nalishda bo'lib, unda "Kahf" surasi an'anaviy va yangicha qarashlar asosida batafsil tafsir qilingan. Masalan, Kurtubiy baliqning tirilib ketishi manzilga yetganlik haqida ishora, chunki vahiyda Alloh baliqni belgi o'laroq olishni buyurganini ta'kidlaydi [Kurtubi 2000, 63]. Shuningdek, Xizr haqidagi bahsda Ilyos a.s. haqidagi xabarlar ham bayon etilib, Xizr va Ilyosning abadiy tirikligi to'g'risidagi mulohazalar keltiriladi [Kurtubi 2000, 102-104]. Kurtubiy tafsiriga xos yana bir jihat – muallif muayyan masala yuzasidan o'zidan oldin bildirilgan barcha fikrlarni imkon qadar qamrab olishga, ilk tarixiy manbalarga e'tibor qaratishga intiladi.

Kurtubiyning Zulqarnayn shaxsi borasida Abdurahmon Suhayliydan keltirgan quyidagi iqtibosi esa masalani tushunishda juda muhim ahamiyat kasb etadi: "as-Suhayliy aytadiki, Xabarlar ilmidan ma'lum bo'lishicha, ular ikki kishi edilar. Ulardan biri Ibrohim (a.s.) davrida o'tgan deyilishiga qaraganda, Shomdagi Bi'rus-Seb masalasida uning qarorini so'rganlarida Ibrohim (a.s.) foydasi-ga hukm qilgan kishidir. *Ikkinchisi* esa Iso (a.s.) davriga yaqin bir zamonda yashagan" [Kurtubi 2000, 109]. Abdurahmon Suhayliy (1114–1185) Andalusiyaning janubida joylashgan Malagada tug'ilgan va sahobalardan Abu Ruvayha al-Hasomiy avlodidan. U juda ko'p ilmlarni zamonasining mashhur olimlaridan o'rganadi, ko'p shaharlarni kezadi va mutafakkir bo'lib yetishadi. Kurtubiyning Suhayliydan iqtibos keltirishi ham tasodif emas, chunki Kurtubiy ham Andalusiya arablaridan, aniqrog'i, Kardobada tug'ilgan. Shu bois u G'arbiy Yevropada ancha taniqli Suhayliydan iqtibos keltiradi. G'arbiy Yevropada yashagan, islomiy ilmlarni juda chuqur bilgan, ayni paytda arab muhitidan tashqarida bo'lgan Suhayliyning bunday fikr bildirishi ko'p jihatdan mantiqli. Avvalo, u Aleksandr haqidagi sox-

ta afsona va qissalar keng yoyilgan Yaqin Sharqdan yiroqda edi, shu bois u bu kabi uydurmalar ta'siriga ko'p tushmagan va Aleksandr haqidagi nisbatan haqiqatga yaqin manbalardan xabardor bo'lgan bo'lishi kerak. Ikkinchidan, Suhayliyning ikkita Zulqarnayn o'tgani haqidagi qarashi shundoq ham asossiz bo'lgan "Kahf" surasidagi Zulqarnayn Iskandardir" degan qarashni tamomila yo'qqa chiqardi. Uchinchidan, ushbu iqtibos ikkita Zulqarnayn o'tgani haqidagi qarash Ibn Kasirdan oldinroq mufassirlar orasida mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Ammo XII asrgacha yaratilgan asosiy tafsirlarda bunday talqin ommalashgan emas. Kurtubiyning ushbu tafsiri mana shunday yangi talqinlarni o'zida aks ettirgani bilan ham ahamiyatli.

Qozi Bayzoviy

Qozi Bayzoviy (vaf. 1286)ning "Anvor at-tanzil va asror at-ta'vil" nomli tafsirida, asosan, "Kashshof"da uchraydigan qarash va talqinlar muxtasar bayon qilingan. Muso va Zulqarnayn qissalari tafsirida Aleksandr haqidagi nasroniy afsonalarining ta'siri yaqqol seziladi [Beydavi 2010, 722; 732-735]. Abulbarokat an-Nasafiy (1223-1310) ning "Madorik at-Tanzil va Haqoiq at-Ta'vil" nomli tafsiri ham "Kashshof"ning qisqartmasi bo'lib, unda ham Aleksandr haqidagi soxta nasroniy afsonalarining ta'siri bilinib turadi [Nesefi, <http://islamilimleri.com/Tefsir>].

Ibn Kasir

Ibn Kasir (1301-1373)ning "Tafsir ul-Qur'on ul-Azim" nomli tafsiri biz o'rganayotgan mavzuga aloqador muhim talqinlarga egaligi bilan ahamiyatli. Ibn Kasir Muso qissasi tafsirida salafлари ta'sirida qolgan va uning talqinlariga ham obi hayot va o'limsizlik motivlari qorishib ketgan [Ibn Kesir 2018, 5021; 5039-5040].

Ibn Kasir "Al-Bidoya va an-nihoya" asarida "Zulqarnaynning hayot bulog'ini qidirishi" sarlavhali alohida fasl yozgan va u yerda tarixchi Ibn Asokir (1105-1176)dan Zulqarnaynning Ranokil degan hamrohi bilan zulmatda hayot chashmasini qidirishi voqeasini keltiradi. Ibn Kasir qayta hikoya qilgan voqealar Aleksandr haqidagi ikki nasroniy afsonaning ikkinchisi, ya'ni Serulik Yoqubga nisbat berilgan afsona syujetining biroz o'zgargan variantidir. Ushbu suryoniy afsonaning aynan Ibn Asokir asarlarida uchrashi ham tasodif emas, chunki u suriyalik mashhur tarixchi bo'lgan, shu bois uning bu afsonadan xabardor bo'lgani va uni o'z asarida arabcha bayon qilganidan ajablanmasa ham bo'ladi. Ajablanarlisi shuki, Ibn Kasir nima uchundir Qur'onga daxli yo'q, butunlay uydirma bo'lgan Zul-

qarnaynning obi hayot qidirishi masalasini rad etishga botinmaydi. Ammo bu voqealar ham yunonlik Iskandarga aloqadordek ko'rinadi, degan taxminni juda o'rinli bayon qiladi [Ibn Kesir 2017, 176-179].

Ammo Ibn Kasir Zulqarnayn shaxsi masalasida salaflaridan farqli qarashni bayon qildi va "Qur'onda zikri kelgan Zulqarnayn – Iskandardir" deyuvchilarning qarashini qat'iy rad etdi. Zulqarnaynni Iskandar deb o'ylovchi mufasssirlarning aksari Tabariyga tayangani bois Ibn Kasir, avvalo, Tabariy tayangan asosni yo'qqa chiqaradi: "Bu borada Ibn Jarir "Umaviy al-Mag'oziy" nomli asarida zaif isnodli hadis rivoyat qiladi. U quyidagicha: "Uqba ibn Amir aytdi: Bir guruh yahudiy Hz. Payg'ambarning huzurlariga kelib Zulqarnayn haqida so'radilar. Hz. Payg'ambarimiz ularga avval boshdan Zulqarnayn xabarini aytib berdi. Aytgan xabarida quyidagilar bor edi: Zulqarnayn asli rumlik yigit edi. Iskandariyani u qurgan. Bir malak uni ko'kka yuksaltirib, shadd (shedde)ga qadar ko'tardi. U yerda yuzlari itlarning yuziga o'xshash bir xalqni ko'rdi". Yana uzundan uzun hikoya qilingan bu rivoyat chirkinliklar bilan to'la, uning Hz. Payg'ambarga nisbat berilishi sahii emas. Bu, asosan, isroil o'g'illarining xabarlaridan ko'chirma [iqtibos]dir" [Ibn Kesir 2018, 5061-5062]. Ibn Kasir ushbu rivoyatda munkar taraflar borligini aytar ekan, uning asosida nasroniylar to'qigan afsonalardan olingan tafsilotlar turganini juda to'g'ri qayd etgan.

Darhaqiqat, avvalgi fasllarda Aleksandrning ko'kka ko'tarilishi haqidagi afsona Talmudda, Aleksandrning turli odamsimon mahluqlarga duch kelgani haqidagi voqealar Psevdo-Kallisfenda uchrashini ko'rgan edik. Aleksandrning rumlik ekani va Misrda Iskandariya qurdirishiga oid tafsilotlar ham Psevdo-Kallisfenda mavjud. Agar ushbu faktlarga tayanilsa, Tabariy rivoyat qilgan hadis isroiliyot va Psevdo-Kallisfen voqealariga asoslangani ma'lum bo'ladi. Ushbu manbalar esa, asosan, tarixiy Aleksandrga aloqasi bo'lmagan soxta tafsilotlar asosida yaratilgan.

Ibn Kasir Aleksandr Makedonskiyning haqiqiy tarixi bilan bir qadar tanish bo'lgan ko'rinadi, chunki Ibn Kasir ko'pgina mufasssirlar Iskandarni vizantiyalik deyishi noto'g'ri, u asli yunonlik bo'lgan Makedoniyalik Filippning o'g'li Iskandar (II) bo'lib, vaziri mashhur faylasuf Aristotel bo'lgan va Iso a.s.dan taxminan uch yuz yil oldin yashagan deydi [Ibn Kesir 2018, 5062]. Ushbu ma'lumotlardagi juz'iy chalkashliklarni inobatga olmaganda Ibn Kasir tarixiy Aleksandr Makedonskiyni to'g'ri tasavvur qilgan, shu bois u Qur'ondagi Zulqarnayn bu Iskandar bo'lishi mumkinligini rad etgan. Ibn Kasir bu talqinning o'rniga, Kurtubiyda bo'lganidek, yangi bir talqinni o'rtaga tashladi, unga ko'ra, "Kahf" surasida zikri kelgan

Zulqarnayn, aslida, Iskandar (I) bo'lib, ushbu Iskandar, ya'ni Zulqarnayn Ibrohim a.s. bilan zamondosh bo'lgan, Ka'bani tavof etgan va Xizr u bilan birga bo'lgan [Ibn Kesir 2018, 5062]. Ahamiyatli jihatlardan biri Ibn Kasir mazkur qarashda Azraqiy (vaf. tax. 864) va boshqalarga tayanmoqda. Abdulloh Azraqiy "Makka tarixi" kito-bi bilan mashhur, aytish mumkinki, aynan shu manbadan Ibrohim Xalilulloh bilan zamondosh bo'lgan Zulqarnayn haqidagi tasavvur-lar tafsirlarga kirib kelgan. Ibn Kasirning "va boshqalar" deyishiga qaraganda, bunday talqin boshqa manbalarda ham mavjud bo'lgan.

Ibn Kasir tafsirida Zulqarnayn masalasini qisqa tafsir etib, bu masalani oldinroq "Al-Bidoya va an-nihoya" nomli asarida bataf-sil tadqiq etganini eslatadi. Darhaqiqat, "Al-Bidoya va an-nihoya"-da "Zulqarnayn voqeasi" nomli maxsus fasl bor. Ibn Kasir ana shu faslda o'ziga qadar yaratilgan tafsirlarda mavjud bo'lgan Zulqarnayn masalasiga oid bahsni tadqiq etib, bu boradagi bahslarga yakun deb olish mumkin bo'lgan quyidagi xulosalarini bayon qiladi: Qur'on-da zikr etilgan Zulqarnayn odil va solih hukmdorlardan biri bo'lib, uning payg'ambar va rasul bo'lganini ham aytishadi. Azroqiy, Suhayliy va boshqalarning aytishicha, Qur'onda zikri kelgan Zul-qarnayn Ibrohim a.s. tufayli Hanif diniga kirgan, Ibrohim Xalilulloh bilan Ka'bani ziyorat qilgan. Zulqarnayn va Iskandar yashagan davr orasida 2000 yildan ortiq vaqt bor. Ikkalasi o'rtasida o'xshashlik yoki saviya birligi yo'q. Vaholanki, masalaning mohiyatini bilmaydigan ba'zilar bu ikkisini bir odam, deyishadi. Ularni farqlash kerak, bu ikki-si alohida-alohida shaxslardir. Suhayliy o'z vaqtida ikkisini bir odam deb talqin qilgan Ibn Hishomga keskin va shiddatli tarzda javob berga-nidek, bu masalada murosa qilib bo'lmaydi [Ibn Kesir 2017, 169-175].

Xulosa

Qur'on qissalari va tafsirlar tahlili shuni ko'rsatdiki, Ya-qin Sharqda, xususan, mufasssirlar tomonidan Psevdo-Kallisfen va Aleksandr haqidagi suryoniy-nasroniy afsonalar chinakam tarix-dek qabul qilingan. Bu jarayonda Ka'b al-Axbor va Vahb bin Mu-nabbih singari yahudiylikdan xabardor yoki kelib chiqishi yahudiy bo'lgan shaxslarning kuchli ta'siri bor. Ammo arablar orasida islom nozil bo'lganidan keyin ilk bor isroiliyotni yoygan bu shaxslar ham Aleksandr haqida to'g'ri ma'lumotga ega bo'lmagan va ular, asosan, soxta afsonalardan xabar berishgan. Ayniqsa, ilk arab tarixchilari va siyar bilimdonlari nasroniy afsonalarda Aleksandr ikki shox-li, shimolda Gog-Magogga qarshi temir darvoza qurgan shaxs deb tasvirlanganidan xabar topgach, Zulqarnayn so'zining "ikki shox-

li” degan ma’noni ham anglatishiga tayanib, Qur’onda zikri kelgan Zulqarnayn bu – Iskandar degan taxminlarni ilgari sura boshlashgan. Masalan, Javziyning qayd etishicha, “Zulqarnayn bu – Iskandar” degan qarashning muallifi yamanlik tarixchi Vahb bin Munabbih (655–738)dir. Ibn Kasir esa ilk arab tarixchilaridan bo’lgan basralik Ibn Hishom (vaf. 833) ham mazkur qarash tarafdori bo’lgan deydi. Bu holat VII – VIII asrlardayoq arab muarrix-u mufasssirlari orasida Qur’onda zikri kelgan Zulqarnayn bu – Iskandar degan qarash yoyila boshlaganini ko’rsatadi. Shu tariqa, soxta asoslar noto’g’ri tasavvurlarni keltirib chiqargan va bunday qarashlar tafsirlarda keng yoyilgan, asarlardan asarlarga o’tib boravergan.

Bunday talqinning islom asoslariga zidligi va Qur’onni obro’sizlantirishini tushungan Azraqiy, Suhayliy va Ibn Kasir kabi mufasssirlar bunga qarshi chiqib, bu yanglish talqin ekani, Qur’ondagi Zulqarnayn Ibrohim a.s. bilan zamondosh va dini hanifiyga ergashgan iymonli, adolatli hukmdor bo’lgani haqidagi qarashni ilgari surishdi. Ular Qur’onda zikri kelgan Zulqarnayn yunonlik Iskandar (Aleksandr) bo’lishi mumkin emasligini qat’iy ta’kidlashdi. Ushbu qarash Qur’ondagi Zulqarnayn qissasini soxta Aleksandr haqidagi uydirmalardan xalos qildi va Zulqarnayn shaxsi borasidagi mavjud qarashlarni ikkiga bo’lib yubordi. Aytish mumkinki, ushbu qarash oldingisiga nisbatan haqiqatga ancha yaqin va real edi. Ikkita Zulqarnayn o’tgani, Qur’ondagi Zulqarnayn Ibrohim a.s. zamonida yashagani haqidagi bahslarni uzil-kesil hal etish imkonsiz. Tahlillar shuni ko’rsatdiki, Qur’onda zikri kelgan Zulqarnaynning tarixiy Aleksandrga hech qanday aloqasi yo’q.

Adabiyotlar

- Arabi, Muhyiddin İbn. 2008. *Tefsir-i Kebir*. Te’vilât. Cilt: 1. Tercüme: Vahdettin İnce. İstanbul: Kitsan.
- Beydavi, Kadi. 2010. *Muhtasar Beydavi Tefsiri*. Envaru't-Tenzil ve Esrarü't-Te'vil. I. Cilt. Tercüme ve Dipnotlar: Doç. Dr. Şadi Eren. İstanbul: Selsebil.
- Er-Râzî, Fahreddin. 1993. *Tefsir-i Kebir*. Mefâtîhu'l-Gayb. Cilt: 15. Tercüme: Prof. Dr. Suat YILDIRIM, Prof. Dr. Lütfullah CEBECİ, Doç. Dr. Sadik KILIÇ, Öğr. Gör. C. Sadik DOĞRU. Ankara: HUZUR.
- İbn Kesir. 2017. *El-Bidâye ve'n-Nihâye* (Büyük İslâm Tarihi). 2. Cilt. Çeviren: Mehmet Keskin. İstanbul: Çağrı.
- İbn Kesir. 2018. *Hadislerle Kuran-i Kerim Tefsiri* (Tafsir ul-Qur'on ul-Azim). 10. Cilt. Çevirenler: prof. Dr. Bekir Karliğa, prof. Dr. Bedrettin Çetiner. İstanbul: Çağrı.
- Kurtubi, İmam. 2000. *El-Camiu li-Ahkami'l-Kur'an*. 11. Cilt. Tercüme ve

- notlar: M. Beşir Eryarsoy. İstanbul: Buruç.
- Mâtürîdî, Ebû Mansûr Muhammed bin. 2018. *Te'vilatu'l-Kur'an Tercümesi*. Cilt: 9. Çeviren: Doç. Dr. İbrahim TÜFEKÇİ. İstanbul: Ensar.
- Nesefî, Ebü'l-Berekât. *Medârikü't-tenzîl ve haqâ'iku't-te'vîl*. URL:<http://islamilimleri.com/Tefsir/Tefsir/018/Tefsir/Turkce/03/000.htm> 18.03.22.
- Süleyman, Mukatil bin. 2015. *Tefsir-i Kebir*. Tercüme: M. Beşir Eryarsoy. İstanbul: İşaret.
- Tabariy, Muhammad bin Jarir. 1356 (h.). *Tarjo'mayi tafsiri Tabariy. Jildi 4. Mutarjimon*: Adoyi az ulamoyi Muvarunnahr dar qarni chahoro'mi hijriy qamariy. Bo ehtimomi Habib Yag'moiy. Tehron: Donishgohi Tehron.
- Taberî, Ebö Cafer Muhammed bin Cerir. 1996. *Taberi Tefsiri*. Cilt 5. Tercüme: Hasan Karakaya ve Kerim Aytekin. İstanbul: Hisar.
- Zemahşerî, Ebu'l-Kâsım Cârullah Mahmûd b. Ömer b. Muhammed el-Hârizmî. 2018. *Keşşâf Tefsiri*. Cilt: 4. Çeviren: Dr. Muhammed Coşkun. İstanbul: Türkiye Yazma Eserler Kurumu Başkanlığı.
- Cevzi, Ebu'l-Ferec ibn Muhammed. 2009. *Zadü'l-mesir fi ilmi't-tefsir*. Cilt: 4. Çeviren: Doç. Dr. Abdülvehhab Öztürk. İstanbul: Kahraman.
- Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. 2008. *Тафсири Ҳилол*. 3-жуз. Тошкент: Шарқ.
- <https://www.encyclopedia.com/religion/encyclopedias-almanacs-transcripts-and-maps/kab-al-ahbar> (11.03.2022)

Interpretations on the subject of Alexander in Tafsir

Ilyos Ismoilov¹

Abstract

The teachings of Islam had a significant impact on the further development of the theme of Alexander, the development in the East. This great influence rests on three important foundations – the Qur'an, hadiths and interpretations. The tradition of writing works on the theme of Alexander was enriched with new subject lines, images, episodes and motives under their influence. It has improved in content and acquired original interpretations. In particular, the Qur'anic surah "Kahf" made a turning point in the evolution of the theme and tradition in the East. Commentaries written on this surah are distinguished by their own character. In them, the details of the story of Zulqarnayn were added with views and interpretations related to the story of Alexander. That is, in the interpretations, the theme of Alexander was received, two traditions were mixed.

This article examines the same aspect of interpretations and draws conclusions based on the works of famous commentators of the East. It is stated that the traditions of Alexander and Zulqarnay were erroneously added, and such a view does not have any reliable grounds.

Key words: *theme of Alexander, story of Zulqarnayn, transformation, interpretation, reception, East.*

References

- Arabi, Muhyiddin İbn. 2008. *Tefsir-i Kebir*. Te'vilât. Cilt: 1. Tercüme: Vahdettin İnce. İstanbul: Kitsan.
- Beydavi, Kadi. 2010. *Muhtasar Beydavi Tefsiri*. Envaru't-Tenzil ve Esrarü't-Te'vil. I. Cilt. Tercüme ve Dipnotlar: Doç. Dr. Şadi Eren. İstanbul: Selsebil.
- Er-Râzî, Fahreddin. 1993. *Tefsir-i Kebir*. Mefâtîhu'l-Gayb. Cilt: 15. Tercüme: Prof. Dr. Suat YILDIRIM, Prof. Dr. Lütfullah CEBECİ, Doç. Dr. Sadik KILIÇ, Öğr. Gör. C. Sadik DOĞRU. Ankara: HUZUR.

¹ Ilyos A. Ismoilov – Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD), Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: ismoilov@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-8077-7914

For citation: Ismoilov, I.A. 2021. "Interpretations on the subject of Alexander in Tafsir". *Golden Scripts* 2: 4–19.

- İbn Kesir. 2017. *El-Bidâye ve'n-Nihâye* (Büyük İslâm Tarihi). 2. Cilt. Çeviren: Mehmet Keskin. İstanbul: Çağrı.
- İbn Kesir. 2018. *Hadislerle Kuran-i Kerim Tefsiri* (Tafsir ul-Qur'on ul-Azim). 10. Cilt. Çevirenler: prof. Dr. Bekir Karliğa, prof. Dr. Bedrettin Çetiner. İstanbul: Çağrı.
- Kurtubi, İmam. 2000. *El-Camiu li-Ahkami'l-Kur'an*. 11. Cilt. Tercüme ve notlar: M. Beşir Eryarsoy. İstanbul: Buruç.
- Mâtürîdî, Ebû Mansûr Muhammed bin. 2018. *Te'vilatu'l-Kur'an Tercümesi*. Cilt: 9. Çeviren: Doç. Dr. İbrahim TÜFEKÇİ. İstanbul: Ensar.
- Nesefî, Ebü'l-Berekât. *Medârikü't-tenzîl ve haqâ'iku't-te'vîl*. URL:<http://islamilimleri.com/Tefsir/Tefsir/018/Tefsir/Turkce/03/000.htm> 18.03.22.
- Süleyman, Mukatil bin. 2015. *Tefsir-i Kebir*. Tercüme: M. Beşir Eryarsoy. İstanbul: İşaret.
- Tabariy, Muhammad bin Jarir. 1356 (h.). *Tarjo'mayi tafsiri Tabariy. Jildi 4. Mutarjimon*: Adoyi az ulamoyi Muvarunnahr dar qarni chahoro'mi hijriy qamariy. Bo ehtimomi Habib Yag'moiy. Tehron: Donishgohi Tehron.
- Taberî, Ebö Cafer Muhammed bin Cerir. 1996. *Taberi Tefsiri*. Cilt 5. Tercüme: Hasan Karakaya ve Kerim Aytekin. İstanbul: Hisar.
- Zemahşerî, Ebu'l-Kâsım Cârullah Mahmûd b. Ömer b. Muhammed el-Hârizmî. 2018. *Keşşâf Tefsiri*. Cilt: 4. Çeviren: Dr. Muhammed Coşkun. İstanbul: Türkiye Yazma Eserler Kurumu Başkanlığı.
- Cevzi, Ebu'l-Ferec ibn Muhammed. 2009. *Zadü'l-mesir fi ilmi't-tefsir*. Cilt: 4. Çeviren: Doç. Dr. Abdülvehhab Öztürk. İstanbul: Kahraman.
- Shayx Muhammad Sodiğ Muhammad Yusuf. 2008. *Tafsiri Hilol*. 3-juz. Toshkent: Sharq.
- <https://www.encyclopedia.com/religion/encyclopedias-almanacs-transcripts-and-maps/kab-al-ahbar> (11.03.2022)

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

“Oltin bitiglar – Golden Scripts” jurnali – Sharq adabiyoti va madaniyati, ijtimoiy-ma’naviy hayoti, tilshunoslik va aniq fanlar, dinshunoslik va ilohiyotshunoslikka oid ahamiyatli qo‘lyozma manbalar, xalq og‘zaki ijodi namunalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalarini chop etishga mo‘ljallangan.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo‘lyozmalar yil davomida o‘zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, turkiy tillarda topshirilishi mumkin. Agar muallif o‘z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr etmoqchi bo‘lsa, unda qo‘lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etishi kerak.

Qo‘lyozmalar MS Word (.doc) formatida (oltinbitiglar@gmail.com) elektron pochta yuborilishi kerak. Iqtiboslar va izohlar bo‘yicha MS Word menejerini qo‘llash lozim.

Barcha qo‘lyozmalar muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma’lumot bilan yuboriladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig‘i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o‘ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo‘lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantirilishi lozim.

Maqola matni 3 000–5 000 so‘zdan iborat bo‘lishi kerak.

100–150 so‘zdan iborat o‘zbek va ingliz tillaridagi abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so‘zdan kam bo‘lmagan kalit so‘zlar (o‘zbek va ingliz tillarida). Abstrakt maqolaning maqsadi, metodologiyasi va natijalarini qisqacha ifodalashi kerak.

Adabiyotlar ro‘yxati 5 sahifadan oshmasligi lozim.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo‘lishi mumkin) 1500 so‘zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so‘ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo‘limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to‘q bo‘yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o‘zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tillarda yozilgan bo‘lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola sarlavhasidan keyin sahifaning o‘ng chetida

muallifning ism-familiyasi yozilib, oxiriga yulduzcha (*) ishorasi qo'yiladi va sahifa pastida muallif haqida quyidagi qisqa ma'lumotlar beriladi: F.I.O., ilmiy daraja va unvon; ish joyi; e-pochta va ORCID ID (raqami).

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – *yotiq*, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satrboshidan, boshqa barcha qatorlari abzasdan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

6.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:

[Xondamir, Makorim, 17^a]

7.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011(a), 99]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Vohidov, Rahim va Husniddin Eshonqulov. 2006. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va Eshonqulov 2006, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Navoiy ijodida Ya'juj-Ma'juj obrazi." *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 130 – 133. Toshkent: Mashhur-press.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 131]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili

(URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL.
Foydalanilgan sana.

Adizova, Iqboloy. 2020. *Thinker poetess of the East*. Germany:
Lambert Academic Publishing. <https://www.lap-publishing.com/>. 12.07.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Adizova 2020, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar:
Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek
matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti.
<http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 1987, 19-hujjat]

7.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni:
maqola sahifalari.

Alimuhamedov, Rixsitilla. 2018. "Qadimgi turk-moniylar adabiyoti."
Oltin bitiglar 1: 65 – 76.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Alimuhamedov 2018, 70]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Saddi Iskandariy" dostonidagi adabiy ta'sir va o'ziga xoslik masalasi xususida." *O'zbekistonda xorijiy tillar* 3: 229 – 235. doi: 10.36078/1596780050.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 231]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?." *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Sobirov, Ergash va Akmal Kenjayev. 2010. "Milliy qadriyat va globallashuv". *New York Times*, 27.02. <http://www.nytimes.com/28/us/28health.html>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sobirov va Kenjayev 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "*The Chicago Manual of Style, 16th Edition*" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

Qaydlar uchun

Ushbu son “Oltin bitiglar” tahririyatida sahifalandi.
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 103-uy.
e-mail: goldenscripts@gmail.com
Tel.: +99891 166-31-38
Bosishga 30. 06. 2021-yilda ruxsat etildi
Qog‘oz bichimi 70x100 1/16/.
nashriyot bosma tabog‘i: 8

Jurnal 2017-yil 26 oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0940 raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan.
Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

“Mashhur-Press” bosmaxonasida chop etildi.
Buyurtma №0440 Adadi 300 dona.
Bosmaxona manzili:100129 Toshkent, Markaz 15, 1-uy. Tel.: +99890 900 75 77,
+99894 659 94 62